

QUYOSHDA HAM DOG‘ BOR

Botirova Hafiza

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti

4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada men Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadur“ asarida keltirilgan fikrlarga kengroq tushuncha va ta’rif berib o’taman. Hozirgi kunda Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadur“ asari juda keng va chuqur ma’noqa ega bo‘lib, xalqimizning madaniyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

***Kalit so‘zlar:** Jamiyatimiz, ko‘ngil, insonning qalb go‘zalligi, hasad, inson, halol, mehr-muruvvat.*

Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadur“ asari orqali bu mavzuni quyidagicha yoritamiz. Quyoshda ham dog‘ bor deyilganda har bir inson mukammal emas, aksincha har bir insonning kamchiliklari bo‘ladi. Bu dunyoda nuqsonsiz insonning o‘zi yo‘q. „Ichindagi ichindadur“ asari insonni fikrlashga, fikrlash orqali o‘zligini anglashga, O‘zligi orqali haqni tanishga yordam beradi. Bu asar men haqimda, siz haqingizda Boringki barchamiz haqida. Qadimda mashoyixlarimiz „O‘zini bilgan avliyo bo‘ladi“ deb bejiz aytishmagan. Hozirgi vaqtda insonlarning manmanligi, mansabparastligi hasadgo‘yligi, befarqligi insonlarning qalb ko‘zini ko‘r qilmoqda. Insonlarning mol-u davlatga ruju qo‘yishi, o‘zligini yo‘qotishiga olib kelmoqda. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu ularning menligi hisoblanadi. Insonni avvalo qalb ko‘zini ochishga ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar solishga undaydi. Bu bilan ul valiy zot insonning o‘zi bir butun olam kichik olam ekanligini o‘qtiradi. „Ichindagi ichindadur“ asari ulug‘vorlik va soddalikning bir makon bir zamonda sig‘ishib yashashining go‘zal namunasidir. Bu asar insonlik va ilohiylik

o‘rtasida bir ko‘prikdir. Bu asar insonning ko‘nglida mudrab yotgan tuyg‘ularni, o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi. O‘zining mavjudligi va haqiqatiga ishonch hosil qiladi. Ishonch inson faoliyatining doimiy tashabbuskori, rag‘batlantiruvchi kuch, ham hisoblanadi. Insonni zohiriy tomondan ya‘ni tashqi tomondan har xil, ularning mohiyati ildizi, tabiati, ehtiyojlari, borar maskani esa mushtarakdir. O‘z maqsadiga erishish uchun ikki asosga suyanish kerak ya‘ni nima demoqchimiz agar danakni mag‘zini chaqib eksang, unmaydi. Agar qobig‘i bilan birga tuproqqa qadasachi uni hodisasini ko‘ramiz. Bundan ko‘rinib turibdiki maqsadga erishish uchun qiyin yo‘l bo‘lsa ham chidam bilan yo‘lni bosib o‘tish kerak ekan. Dard insonga doimo yo‘l ochadi. Dunyodagi har ish uchun inson yuragida ishtiyoq, havas, va dard bo‘lishi lozim. Agar bu narsalar insonda bo‘lmasa o‘z maqsadiga erishishi juda qiyin bo‘ladi, demak dard ham insonga maqsadiga erishishi uchun yordam beradi. Albatta, komil inson haqida ko‘plab olim-u fuzalolarimiz ko‘plab kitoblar yozgan. Ularning asarlarida tasvirlanayotgan komil insonlar osmonda uchib yurgan erkin qushchaga o‘xshaydi. Siz-u biz esa zindonda yotgan mahbusga o‘xshaymiz. Qushning ozodligidan, charx urib aylanishidan, baxttidan mahbusga ne naf? Qaytaga u ana shunday parvozi bilan bu bechoraning o‘z holiga ko‘nikib ketishiga to‘sqinlik qilib, iztirobini orttiradi, xolos. Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadir“ asari bunday holatlardan yiroqda. Bu asar insonning qalbida yaxshilik uyg‘otishga yordam beradi. Bu kitobni mutolaa qilgan inson qalbida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Insonning qalb ko‘zi ochiladi. Insonning dunyoqarashi o‘zgaradi. Hayotdagi chirkin narsalardan o‘zini tiyadi. Insonlarga bo‘lgan mehr muhabbati ortadi. Insonning yuragidagi yomonlik, nafrat, hasad tuyg‘ulari yo‘qoladi. Dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaydi. Qalb so‘zi 2xil ma‘no uchun ishlatiladi.

1. Ko‘krak qafasining chap tomoniga joylashtirilgan ignabarg daraxti shaklidagi bir parcha go‘sh t hisoblanadi. Bu go‘sh tning ichi bo‘sh bo‘lib, ichida qora qon mavjuddir. U ruhning ma‘dani bulog‘i hisoblanadi. Qalb chorva mollarida ham o‘liklarda ham mavjuddir. Qora qon bilan to‘lgan qalb qadrsiz bir buyum kabidir. Qora qon deyilganda qalbimizni ko‘r qilib qo‘ygan mansabparastlik, yovuzlik, manmanlik, hasadgo‘ylik kabilarni nazarda tutyapmiz. Bu yomonliklar

tufayli inson o'zini tubsiz jarlikka tashlaydi. Demak qalbimizni doimo sof va beg'ubor yomonliklardan holi tarzda tutishimiz kerak. 2.Ma'noda esa robbimiz bandalariga ato etgan ruh bir narsadirki, uning jismoniy qalbga bog'liqligi bor. Ana shu ilohiy ne'mat insonning asl mohiyati va haqiqatidir. U insonning idrok qiluvchisi, biluvchisi va tanuvchisidir. Qalbning haqiqatini bilishga urinish sir tutilgan ruh ishini oshkor qilishni taqoza etadi. Inson o'z qalbini doimo pokiza tutishi kerak turli xil nopok ishlardan o'zini tiyishi kerak. Qalb va aql o'rtasida doimo kurash bo'lib keladi. Shunday vaqtda inson doimo o'z qalbiga ishonish kerak. Qalb podsho bo'lsa, aql unga vazir hisoblanadi. Qolgan barcha a'zolarimiz esa qo'riqchi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda hasaddan har doim o'zimizni tiyishimiz lozim. Hasad tufayli o'zimizni qanday jarlikka olib borayotganimizni tasavvur qilib ko'z oldimizga keltirganimizda edi bunday yomon ilatdan o'zimizni tiygan bo'larmidik. Bir o'ylab ko'ring-a hattoki hasad tufayli bir oila parokanda bo'layotganini ko'rib insonning ichi achiydiya. Hoy-u havas tufayli o'zimizni ,borinkki yaqinlarimizni qanday qiyin ahvolga solib qo'yamiz yuzini yerga qaratamiz. Bu esa insongarchilikka umuman to'g'ri kelmaydi. O'tkinchi narsalar tufayli o'zimizning insoniylik fazilatimizni yo'qotmaylik. Qalbimizda doimo ezguliklar chechak ochsin. Qalbimizdagi hasad urug'ini olib tashlaylik. Shundagina hayotimiz go'zal o'ylagan barcha niyatlarimiz amalga oshishini ko'rib o'zingiz ham hayratda qolasiz. Axir yaxshi inson bo'lishimiz o'z qo'limizda-ku to'g'rimi? Jaloliddin Rumiyning ichindagi ichindadur asarida quyidagi fikrlar keltirilgan. Dengizga borib bir ko'za bilan suv olmoq bilan qanoatlanish eng achinarli holatdir. Bu o'zi nima degani desangiz oddiy bir misol maktabga ilm olishga borasiz. Faqatgina kun o'tkazish uchun bormaysizku to'g'rimi? Miyamizda barcha bilimlarni to'planishiga maktabdagi darslar bevosita bizga yordam beradi.